

Qo'chqarov Temurbek Baxromjon o'g'li

Oriental Universiteti o'qituvchisi

Burxonjonova Mushtariy Farhodjon qizi

Oriental Universiteti talabasi

Annotatsiya; Ushbu maqolada Yangi O'zbekistonda amalga oshirilgan ishlar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar; Iqtisodiy rivojlanish, BMT tashkiloti tomonidan o'tkazilgan yig'ilishlar, yoshlarga berilgan imkoniyatlar.

O'z yurtida ozod va erkin hayot, adolatli jamiyat barpo etishdek ulkan maqsadni o'z oldiga qo'ygan har qanday xalq, har qanday millat og'ir, mashaqqatli va murakkab taraqqiyot yo'lini bosib o'tadi. Kelajakka katta umid va ishonch bilan qarab, hamisha sabr-matонат bilan yashagan o'zbek xalqi ham 1991-yil 31-avgustda muqaddas orzusiga erishdi – jonajon Vatanimiz o'z davlat mustaqilligini qo'lga kiritdi. Shu ma'noda, bugungi kunda butun xalqimizning qalbidan chuqur joy olgan, umummilliy harakatga aylanib borayotgan “Yangi O'zbekiston” g'oyasi zamirida ana shunday ulug' ajdodlarimiz, umuman olganda, milliy tariximizda Birinchi va Ikkinchi uyg'onish davrlariga asos solgan alloma bobolarimizning orzu-intilishlari va armonlari ham mujassam, desak, adashmagan bo'lamiz. Yangi O'zbekiston – bu, avvalo, yangicha iqtisodiy munosabatlar, yangicha iqtisodiy dunyoqarash demakdir. Yangi O'zbekistonning global va mintaqaviy tashabbuslari nafaqat Markaziy Osiyo, balki boshqa turli mintaqalarning barqaror rivoji va xavfsizligini ta'minlashga xizmat qilayotgani ko'rsatib o'tildi. Ushbu tashabbuslar asosida birgina BMT Bosh Assambleyasining 10 dan ziyod rezolyutsiyasi qabul qilingani e'tirof etildi. Zero, BMT tomonidan dunyoda juda kamdan kam davlatlar rahbarlarining 6 yil ichida 10 tashabbusi bo'yicha rezolyutsiyalar qabul qilingan. Birinchi. Yangi O'zbekistonda barcha sohalarda amalga oshirilayotgan shiddatli islohotlarning bosh bog'lovchi

bo'g'inini, o'zagini yangi O'zbekistonda “Inson qadri uchun”, “Avval inson – keyin jamiyat va davlat”, “Hech kim ortda qolmaslik” g'oyalari tashkil etadi. O'zbekiston tarixda ilk marotaba BMTning Inson huquqlari bo'yicha kengashiga a'zo bo'lishi – mamlakatda inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoyasini ta'minlash sohasidagi davlat siyosatining jahon hamjamiyati tomonidan e'tirofidir. Ishsizlikdan himoyalaniish, kafolatlangan sifatli ta'lim, malakali tibbiy yordam, barcha uchun teng imkoniyatlar, oilalar, bolalar, ayollar, qariyalar, nogironligi bor shaxslarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash ham ijtimoiy davlatning asosiy vazifasidir. Shular qatorida yashash uchun zarur resurslar – ichimlik suvi, tabiiy gaz, elektr energiyasi, transport va boshqa qulayliklar bilan ta'minlanish, majburiy mehnatga taqiq qo'yish ham ijtimoiy davlatda muhim ahamiyat kasb etadi. Yaponiyadagi O'zbekiston elchixonasida turli sohalarda faoliyat olib borayotgan ekspert doiralari vakillari ishtirokida davra suhbatini tashkil etildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 11-aprel kuni yoshlar siyosati sohasidagi ishlar natijadorligini oshirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.

Mamlakatimizda 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar 19 milliondan ortiq yoki aholining 55 foizini tashkil qiladi. Mehnat bozoriga har yili 600 ming yoshlar kirib kelayotgan bo'lsa, kelgusi 10 yilda bu raqam 1 millionga yetadi. Yangi O'zbekiston yoshlari tashabbuslari” jamg'armasi va elektron platformasi tashkil qilinishi belgilandi. Jamg'armaga 100 million dollar yo'naltirilib, bu mablag'lar iqtidorli yoshlarning eng yaxshi g'oya, startap va loyihalariga qulay va yengil shartlarda, zarur bo'lsa foizsiz ajratiladi.

IT-parklar bo'yicha tajribadan kelib chiqib, hududlarda “Kreativ park”lar ham tashkil etiladi. Ularga IT-park rezidentlariga berilgan imtiyoz va yengilliklar qo'llanadi.

Xorijlik ishtirokchilar e'tirof etishicha, agar 2018 yilda mamlakatning ijtimoiy siyosatini amalga oshirishga yo'naltirilgan xarajatlari 35 trillion so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2022 yilda 105,5 trillion so'mga yetdi (3 barobarga oshgan). 2023 yilda ta'lim sohasi xarajatlariga 58,4 trillion so'm, sog'liqni saqlash sohasiga

28,4 trillion so'm, madaniyat sohasiga 2,5 trillion so'm, sport sohasiga 2,3 trillion so'm va fanni yanada rivojlantirish tadbirlari uchun 1,8 trillion so'm yo'naltirish belgilandi.

Bu so'nggi besh yil ichida ijtimoiy siyosatni izchil mustahkamlash imkonini berdi. Natijada amalga oshirilgan ishlar xalqaro miqyosda e'tirof etilib, 2022 yilga kelib O'zbekiston Ochiq ma'lumotlar reytingida 191 mamlakat orasida 40-o'ringa va Markaziy Osiyo mamlakatlari ichida 1-o'ringa ko'tarildi.

To'rtinchi. Yangi O'zbekiston – insonning ekologik huquqlari ta'minlanadigan, mamlakat tabiiy resurslari asrab-avaylanib, oqilona foydalanib, barqaror taraqqiyotga hizmat qiladigan davlat. Dunyoda aniqlangan mavjud tabiiy yoqilg'i-energiya resurslari (tabiiy gaz, neft) 60–150 yil ishlatishga yetadi. Energetika butun dunyoda dolzarb masalaga aylanib borayotgani bois, salohiyatli davlatlar uning muqobil yo'llarini izlamoqda. Bugun jahon energetikasida “yashil energetika” ulushi qariyb 30 foizga yetgan, ayrim Yevropa davlatlarida 80–90 foizdan oshgan.

Foydalanilgan adabiyotlarlar;

1. Minhojiddin MIRZO, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi rahbari “Yangi O‘zbekiston” gazetasi,- 2023-yil 6-may, 88-son.
2. 2020 “Yangi O‘zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati» DM
3. 6.04.2018-yil. Muassis: “Xalq so‘zi” va “Narodnoye slovo” gazetalari tahririyati davlat unitar korxonasi. Bosh muharrir: Rahmatov O‘tkir Rahmatovich. Tahririyat manzili: 100000, Toshkent shahri, Matbuotchilar ko‘chasi 32-uy. Elektron manzil: info@xs.uz
4. Abdulaziz Abdullaev - siyosatshunos xalqaro munosabatlar bo'yicha ekspert